

INTERTEKSTUAL TEZAVRUSLARNING MENTAL LUG‘AT SIFATIDAGI AHAMIYATI

O‘rinova Zarifa Jumanazar qizi

zarifaorinova@gmail.com

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda elektron lug‘atlarning o‘rni, o‘zbek tili leksikografiyasida haligacha, yetarli darajada elektron lug‘atlar yaratilmaganligi haqida so‘z boradi. Jahon tilshunosligida yaratilgan ilk tezavrus lug‘atlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, bu turdagi lug‘atlar uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirish talablariga ham to‘xtalib o‘tilgan. O‘zbek intertekstual birliklar tezavrusini yaratish asoslari, intertekst haqidagi ma’lumotlarni berish tartibi xususida aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan. Nazariy ma’lumotlar misollar asosida dalillangan.

Abstract. This article talks about the role of electronic dictionaries today, the fact that there are still not enough electronic dictionaries in the lexicography of the Uzbek language. The first thesaurus dictionaries created in world linguistics and their characteristics, as well as the requirements for the formation of a database for this type of dictionaries, are also discussed. Specific recommendations have been developed regarding the basics of creating the thesaurus of Uzbek intertextual units, the procedure for providing information about intertext. Theoretical information is proved on the basis of examples.

Аннотация. В данной статье говорится о роли электронных словарей сегодня, о том, что в лексикографии узбекского языка по-прежнему недостаточно электронных словарей. Также обсуждаются первые созданные в мировой лингвистике словари-тезаурусы и их характеристики, а также требования к формированию базы данных для словарей этого типа. Разработаны конкретные рекомендации относительно основ создания тезауруса узбекских интертекстуальных единиц, порядка предоставления информации об интертексте. Теоретическая информация подтверждается на основе примеров.

Kalit so‘zlar: *Leksikografiya, kompyuter lingvistikasi, tezavrus, intertekstual birlik, pretsedent birlik.*

Ma’lumki, XXI asrni kompyuter texnologiyalari asri sifatida qayd etilmoqda. Hozirgi kunda hech qaysi soha yo‘qki, elektrotexnika, kompyuter texnologiyalari kirib bormagan. Zamonaviy tilshunoslikni-da, biz kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Ayniqsa, jamiyatimizda zamonaviy elektron lug‘atlarga ehtiyojning borgan sari ortib borishi, o‘zbek leksikografiyasi rivojiga katta ta’sir o‘tkazdi. Tilshunoslar tomonidan har tomonlama qulayliklarga ega tezavrus lug‘at, wordnet lug‘atlar yaratish zarurati vujudga keldi. Bu kabi mashina tarjimasi tayanch

bazasi vazifasini o'tovchi lug'atlar esa g'arb tilshunosligida allaqachon yaratilgan. Xususan, tezaurus lug'atlarga to'xtalsak, tezaurus umumiy ma'noda maxsus terminologiya, ya'ni lug'at, ma'lumotlar yig'indisi, ma'lum sohadagi bilimlar yoki faoliyat sohasidagi tushunchalar, ta'riflar va terminlarni to'liq o'z ichiga olish xususiyatiga ega bo'lgan elektron lug'atdir. Birinchi zamonaviy ingliz tezaurusi Piter Mark Roger tomonidan 1805-yilda yaratilgan bo'lib, bu lug'at 1852-yilda Angliyada nashr etilgan. Ushbu tezaurus lug'at taxminan 15 mingta tushunchani o'z ichiga oladi va hozirgacha foydalanib kelinadi. Rus tilshunosligida ham o'tgan asrning oxirida mashxur tezaurus lug'at “PyTez” yaratildi. Biroq o'zbek tilida hanuz bu kabi tezaurus lug'at yaratilmagan. Ushbu maqolada biz interkestual tezaurus yaratish va uning ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Hozirgi kunda aksariyat hollarda zamonaviy o'zbek tilida yaratilgan badiiy matnlarni to'laqonli tushunish uchun faqat o'zbek tilini bilish, unda erkin gapira olishning o'zi yetarli emas. Buning sabablaridan biri esa badiiy kontekstda intertekstual birliklarning yozuvchi va shoirlar tomonidan keng qo'llanilayotganligidir. Lisoniy shaxs (til sohibi) badiiy matnni aniq tushuna olishi va tahlil qila olishi uchun esa, albatta, intertekstual birlikni tanishi, u haqida yetarli bilimga ega bo'lishi lozim.

Tilshunoslar O.V.Fokina va E.Shmelova ham zamonaviy rus matnlarini to'liq tushunish uchun “Intertekstual kompetensiya”dan xabardor bo'lishi lozim deya ta'kidlaydi. Sitata, iqtibos, allyuziv nomlar, reminatsiya, pretsedent nomlar v.b.ni birgalikda intertekstual birlik deb atash mumkin. [Фокина, Шмелева, 2012:49]. Rus tilshunosligida chuqur izlanishlar natijasida 2007-yilda birinchi “Zamonaviy rus tili idiomalari tezaurus lug'ati”¹⁵ yaratildi. Bu lug'at tarkibiga rus intertekstual birliklari ham kiritilgan.

Ko'rinib turibdiki, badiiy matnni to'liq tushunish, tarjima jarayonlarini yanada qulaylashtirish maqsadida o'zbek tilidagi matnlarda ko'p qo'llanadigan intertekstual birliklarning ishlatish o'rnini batafsil tavsiflovchi va tushuntiruvchi “O'zbek intertekstual birliklar tezaurusi”ni yaratish bugungi kun o'zbek leksikografiyasi uchun juda zarur. Lug'at uchun o'zbek milliy adabiyoti, ommaviy axborot vositalari va internet matnlarini tahlil qilish orqali ma'lumotlar bazasi to'planishi ko'zda tutiladi. Tezaurus lug'atlarda ma'lumotlar bazasi juda katta bo'lganligi bois kitob shaklida emas, multimedia, ya'ni elektron shaklida yaratish tavsiya etiladi. Tezaurus, ayniqsa, elektron formatdagi tezaurus har bir sohaga oid so'zlarni to'liq ochib beradigan lug'atlardan biri sanaladi. Oddiy lug'atlardan farqli o'laroq, har bir so'z mohiyatining to'liq yoritib berilishini ta'minlaydi. Bu lug'atning elektron formatdagi ko'rinishi insonning vaqtini tejash, bir so'z haqida to'liq ma'lumot olish imkonini beradi. [Xolmanova, 2019] Demak, foydalanuvchilar

¹⁵ Словарь-тезаурус современной русской идиоматики 2007]; [Ашукин, Ашукина 1987]; [Берков, Мокиенко, Шулежкова 2005]; [Душенко 2006]]

kam vaqt ichida ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lishi, qulaylik his qilishi uchun tezaurus lug‘atlarning elektron shaklda bo‘lishi afzalroq.

Intertekstual birliklar tezaurus lug‘atining o‘ziga xos jihatlaridan biri shuki, bunda intertekstual birlikning asl manbasi, uning paydo bo‘lish vaqti va mualliflik ko‘rsatkichi, agar birlik chet el adabiyoti matnlariga, chet el filmlariga, aforizmlariga ishora qiluvchi tarjima qilingan matn yoki iqtibos ko‘rinishida bo‘lsa, asl tilida ham ko‘rsatilishi kerak. Ba‘zan esa rasmlar, plakatlar, intertekstual birlik film va multfilm qahramoni tomonidan qo‘llangan bo‘lsa, aynan shu obrazning fotosurati beriladi. Lug‘at elektron shaklda bo‘lganligi bois, turli xil ma‘lumotlar matn, grafika, animatsiya, audio, foto va video va boshqalar ko‘rinishida taqdim etilish imkonini mavjud.

O‘zbek intertekstual tezaurusi bazasini yaratishda boshqa tillarda yaratilgan ushbu tipdagi lug‘atlarni umumlashtirib, ulardan foydalangan holda ma‘lumot to‘plash kerak. Quyida biz xalqimiz orasida juda mashhur bo‘lgan “siz o‘shami?” pretsedent birligining tezurus lug‘atda qanday berilishini ko‘rib chiqamiz. Baza taxminan shunday tuzilishga ega bo‘ladi:

Intertekstual birlik	“Siz o‘shami” (1926-yildan beri xalq orasida mashhur. Eng mashhur bo‘lgan davr: 2001-2017-yillar oralig‘i.
Intertekstual birlik turi	Pretsedent birlik
Asl manba	A.Qodiriy. “O‘tkan kunlar” romani (1920-yilda yozilgan, 1926-yilda kitob holida nashr etilgan. Romanning “Kutilmagan baxt” bo‘limidan
Asl matn	Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlang‘an bir tovush bilan so‘radi: — Siz o‘shami? — Men o‘sha, — dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar. 
Izoh	Kutilmagan vaqtda, kutmagan insonni ko‘rish, o‘zini xursand va baxtli his qilish
Intertekstual birlik sifatida	Xurshid Davron “Siz o‘shami?” she‘ri. Yulduzim deb izlaganim, Armonlarda bo‘zlaganim,

*Kecha-kunduz so‘zlaganim –
Siz o‘shamu, siz o‘shamu? (Shuhrat Qayumov ijrosida
qo‘shiq bo‘lgan va mashhurlikka erishgan)*



Shu tarzda o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan intertekstlarni har biriga to‘xtalib o‘tiladi. Qo‘shimcha tarzda “siz o‘shami” pretsedent birligini bazasini shakllantirishda “O‘tgan kunlar” romani asosida ishlangan badiiy filmdan aynan shu intertekst qo‘llangan parcha va film epizodining videosi va qo‘shiq ijrosidan namuna, ya’ni qo‘shiq matni va ovozi ham joylash mumkin.

Intertekstual birliklar tezaurusini tuzishda ma’lumotlarni, avvalo, tematik, ya’ni interteks turi nuqtayi nazaridan berib, an’anaviy alifbo tartibida berilishi tavsiya etilmaydi. Chunki ba’zi intertekstual birliklar so‘z ko‘rinishida, ba’zilari birikma, ba’zilari gap, ba’zilari esa matn ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Tezurus tarkibidagi so‘zlar alfavit bo‘yicha emas, balki mavzu va mavzular majmuyi sifatida shakllangan lingvistik lug‘at hisoblanadi. Tezaurus – so‘zlar va so‘z birikmalari o‘rtasidagi turli bog‘lanishlar (munosabatlar) haqidagi axborotlarni saqlashga xizmat qiluvchi ma’lumotlar bazasidir. [Xolmanova, 2019:102] Ko‘rinib turibdiki, tezaurus lug‘atlar boshqa turdagi lug‘atlardan farqli tuzilishga ega bo‘ladi va metainformatsiyani (axborot haqidagi ma’lumotlar)ni qamrab oladi.

Intertekstual lug‘at tuzishda olimlar turlicha takliflar bildirishgan. Bu takliflarning barchasining maqsadi, intertekstual lug‘atlarni foydalanuvchilar uchun qulay va foydali bo‘lishga qaratilgan.

Foydalanuvchiga kerakli ma’lumotlarni tezda o‘qishga imkon beradigan intertekstual birlik yozuvining turli zonalariga giperhavolalar qo‘yilishi kerak. Ma’no zonasidan tematik lug‘atga o‘tish va boshqa intertekstual birliklar shunga o‘xshash ma’noni ifodalashi haqida ma’lumot olish mumkin bo‘lishi, shuningdek, manba zonasidan manbalar ro‘yxatiga kirish va kelib chiqishi bir xil bo‘lgan boshqa intertekstlarni ko‘rish imkoni mavjud bo‘lmog‘i lozim. [Вознесенская, Шмелева, 2019:8]. Ushbu fikrlardan anglashinadiki, o‘zbek intertekstual birliklar tezaurusini yaratish uchun tilshunoslar va dasturchilar birgalikda maslahatlashgan holda ish olib borishi lozim. O‘zbek tili intertekstual birliklar tezaurusini to‘liq yaratish bitta tadqiqotchi yoki ilmiy ish doirasida hal qilish qiyin bo‘lgan vazifadir. Sababi intertekstual tezaurus bazasini yaratish jarayonida matnlar badiiy asarlardan, kinofilmlardan, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, jonli nutqdan, teleko‘rsatuvlar, reklamalar va ilmiy-badiiy maqolalardan terib olinishi talab etiladi.

Xullas, intertekstual birliklar tezaurus lug‘ati tarjimonlarning sifatli faoliyat olib borishi uchun, lisoniy shaxs (til egasi)lari hamda ushbu tilni o‘rganayotgan chet elliklar uchun juda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вознесенская М. М., Шмелева Е. Я. О проекте словаря «интертекстуальный тезаурус современного русского языка»: книжный vs. Мультимедийный. Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: по материалам международной конференции «Диалог 2019». Москва: 2019. С. 4-10.
2. Fokina O. V., Shmeleva E. Ya. (2012) Intertextual competence and text understanding [Intertekstual'naja kompetetsiya i ponimanie teksta] Linguistic training of students at school and out of school [Lingvisticheskaja rabota so shkol'nikami na urokah raznyh predmetov i vo vneurochnom obrazovatel'nom prostranstve], MIOO, Moscow, p. 49–59.
3. Xolmanova Z. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2019. B. 102.
4. <https://tafakkur.net/otkan-kunlar/kutilmagan-baxt.uzb>